

AN‘ANALAR DAVOMCHISI VAHOBJON BUVAYEV IJODI XUSUSIDA

Olimjonova Maftuna Farhodjon qizi

Namangan davlat universiteti

tayanch doktoranti

maftuna_olimjonova@mail.ru

Tel: +998932271893

Anotatsiya: Ushbu maqolada G‘urumsaroy kulolchilik maktabining tarixiy ildizlari, usta Ko‘ki asos solgan an‘anaviy kulolchilar sulolasi hamda ushbu maktabning bugungi kunda davom etishida Vahobjon Buvayevning tutgan o‘rni ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: G‘urumsaroy kulolchilik maktabi, an‘anaviy kulolchilik, Vahobjon Buvayev, Maqsudali Turobov, ustoz-shogird an‘anasi, Farg‘ona vodiysi amaliy san‘ati, kulolchilar sulolasi, ishqorli bo‘yoq, mag‘il tayyorlash, “larzana” naqshi, an‘anaviy kompozitsiyalar, xalq amaliy san‘ati, badiiy meros, kulolchilik buyumlari.

G‘urumsaroy qishlog‘i yurtimizda kulolchilik an‘analarini davom ettirib kelayotgan va ko‘plab usta kulollar etishib chiqqan qadimiy joy hisoblanadi. Shuningdek, vodiya ikkinchi bo‘lgan G‘urumsaroy kulolchilik maktabiga manbaalarda yozilishicha, usta Ko‘ki degan odam 1700 yillarda kelib, shu yerda yashab kulolchilikka asos solgan. Bunga qishloq tuprog‘ining tozaligi, olovga o‘ta chidamliligi, havosini tozaligini asosiy sabab bo‘lgan. Usta Ko‘ki kulolchiligini uzoq yillar davom etishiga sababchi bo‘lgan ustalar Usmon, Diyor, To‘xta buva, Xokim tavoqchi, Turob tavoqchi, Sodiq kulol, usta Soti, usta Xayitboy, usta Maxmud, Maqsud tavoqchilar G‘urumsaroy kulolchilik maktabining ham davomchilari sanaladilar. Ular qo‘lida sayqal topgan barkash, nimbarkash, nimtavoq, damtovoq, qaymoqdon, kosa, piyola, qo‘shquloq, katta ko‘zalagancha kabi kulolchilik buyumlari bejirimligi, ranglarining tiniqligi va qulayligi bilan dovrug‘ qozongan.



Ustalar sulolasining so‘nggi yirik vakili Maqsudali Turopov vafoti esa ushbu jarayonni muqarrar ekanligini bildirardi. Chunki, usta G‘urumsaroyda ota bobolardan meros bo‘lib o‘g‘illarga, nabiralarga o‘tib kelayotgan an‘anaviy xalq kulolchilik maktabining mashhur fidoyilardan edi. Ustaning shogirdlari ko‘pchilikni tashkil qilgani bilan ular mustaqil ijod yo‘liga qadam qo‘ymagan edilar. Hattoki, ishqorli bo‘yoq olish, mag‘il tayyorlash kabi eng zaruriy narsalarni ham yaxshi bilishmas edi. Bu esa G‘urumsaroy kulolchilik san‘atining oltin zanjiridagi halqaning uzilishi va davomi yo‘q bo‘lishi xavfini tug‘diradi.



Usta vafotidan keyin ularning deyarli barcha shogirdlari o‘z hunarlarining qadr qiymatini his qilmay boshqa sohalarga o‘tib ketdilar. Sanoqli shogirdlarigina asriy an‘anani davom ettirib ijod yo‘lini tanladilar. Hozirgi kunda bu maktab usta kulol, republika va xalqaro tanlovlar g‘olibi Vahobjon Buyayev va uning shogirdlari orqali davom etib kelmoqda.

Bugungi kunda Vahobjon Buvayev Usta vafotidan keyin ularning deyarli barcha shogirdlari o‘z hunarlarining qadr qiymatini his qilmay boshqa sohalarga o‘tib ketdilar. Sanoqli shogirdlarigina asriy an‘anani davom ettirib ijod yo‘lini tanladilar. Hozirgi kunda bu maktab usta kulol, republika va xalqaro tanlovlar g‘olibi Vahobjon Buyayev va uning shogirdlari orqali davom etib, G‘urumsaroy kulolchilik maktabi dovrug‘i dunyoga tanilmoqda.

2025-yil 7-may kuni Toshkent fotosuratlar uyida G‘urumsaroy kulolchilik maktabining davomchisi, taniqli kulol Vahobjon Buvayevning “An‘analarni davom ettirib” nomli shaxsiy ko‘rgazmasi ochildi.



Ko'rgazmada ustaning 300 ga yaqin kulolchilik san'ati namunalari taqdim etildi.

Mazkur ko'rgazma ochilishi juda ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirga O'zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi rahbari Rasul Mirzaahmedov, O'zR FA San'atshunoslik instituti Tasviriy va amaliy-bezak san'ati bo'lim mudiri, O'zR FA akademigi, O'zBA

akademigi, s.f.d., prof. A.Hakimov, San'at jurnali bosh muharriri Binafsha Nodir, O'zR FA San'atshunoslik institutining ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, s.f.f.d., katta ilmiy xodim Masharib Abdullayev, O'zR FA Ilm-fan targ'iboti markazi mas'ul kotibi A'lo Isakova, NamDU tayanch doktoranlari M.Olimjonova, D.Mo'ydinova kabi mehmonlar hamda bir qator xorijiy mehmonlar tashrif buyurishdi. Tadbir boshida Rasul Mirzaahmedov so'zga chiqib kulol V.Buvayevga samimiy tilaklarini bildirdi hamda O'z R.“Hunarmandlar” uyushmasi tomonidan taqdim etilgan esdalik sovg'alarini topshirdi. Shuningdek A.Hakimov ham so'zga chiqib ustaning krlgusi ishlarida omad va zafarlar tiladi.

Vahobjon Buvaev bugugi kunda G'urumsaroy an'anaviy kulolchiligi bilan shug'ullanayotgan kam sonli ustalardan biridir.



Usta g‘urumsaroylik mashhur kulol, kulollar sulolasi vakili Maqsudali Turobovning tanlangan, haqiqiy shogirdi sifatida g‘urumsaroy kulolchilik maktabi an‘analarini davom ettirib kelmoqda.

Ko‘rgazmada ijodkorning rang-barang kompozitsiyalar ishlangan turli-tuman kulolchilik namunalari: lagan, shokosa, kosa, ko‘za, guldun, qo‘shquloqli ko‘za, piyola, tog‘ora, likobcha, qaymoqdon, qanddon, surmadon, shamdon singari kundalik turmushda ishlatiladigan idishlar bilan birgalikda, turli ko‘rinish va obrazlardagi hushtaklar, ajdar hushtak kabi ijodiy ishlari tomashabin e‘tiboriga taqdim etildi.

Usta G‘urumsaroy an‘anaviy kulolchiligini davom ettirish bilan birga tinimsiz izlanishlar olib borib buyumlar kompozitsiyalarini mukammallashtirib kelmoqda. Ulardan “larzana” aynan, g‘urumsaroy kulolchiligi ramzidir. Shuningdek “obdasta”, “chorbarg”, “gajjak”, “bo’tako’z”, “mag’iz” mavzulari ham g‘urumsaroy vodiysi kulolchiligiga xosdir. Ushbu an‘anaviy maktabning yana bir o‘ziga xos jihati yirik gullik kompozitsiyalarning mavjudligidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.A.Хакимов. Современное декоративное искусство Республик Средней Азии. – Т., 1988. – 160 с.
2. A.Hakimov. O‘zbekiston hunarmandchiligi durdonalari. Kitob-albom. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 384 b.
3. A.Анарбаев. Ахсикент - столица древней Ферганы. – Т.: Тафаккур, 2013. – С. 29.
4. A.Hakimov.. “O‘zbekiston Davlat San’at Muzeyi noyob hazinasidan”. -Toshkent: Baktريا press, 2014. -236 b
5. Хакимов А.Голубая керамика Ферганы. Риштанский мастер Шарафиддин Юсупов. М.: Галарт, 2015. – 120 b.
6. Inomov SH. “Popim-sahavotli yurtim” Namangan nashriyoti, 1996 yil.
7. Jo‘raev M, Ipak yo‘li afsonalari, Toshkent, “FAN”, 1993yil.
8. Ismoilov Y. “Namangan faxri” 1994 yil “Namangan” nashriyoti
9. Tursun A. O‘tmishni toptash mumkinmi?, “Hayrat”, 2002 yil 10 mart
10. Asqarov A. Eng qadimiy shahar.-Toshkent: Ma’naviyat, 2001.